


2021- yil uchun Samarqand viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yilda Samarqand viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda –YAHM) hajmi joriy narxlarda 53 749,9 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2020- yil bilan taqqoslaganda 8,8 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2020- yildagi narxlarga nisbatan 113,9 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Samarqand viloyatining qo'shgan hissasi 7,3 % ga yetdi.




**2020-2021- yillarda iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari**

	<i>Mlrd. so'm</i>		<i>O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da</i>
	<i>2020- yil</i>	<i>2021- yil</i>	
I. YAHM, jami	43 386,6	53 749,9	108,8
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	42 478,3	52 640,7	108,8
mahsulotlarga sof soliqlar	908,3	1 109,2	109,5
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	42 478,3	52 640,7	108,8
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	19 346,3	23 622,4	104,6
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	8 779,7	10 927,0	112,0
sanoat	6 294,6	7 789,8	110,8
qurilish	2 485,1	3 137,2	115,2
xizmatlar	14 352,3	18 091,3	112,5
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	2 720,2	3 355,7	109,9
tashish va saqlash, axborot va aloqa	2 504,2	3 384,8	124,7
boshqa xizmat tarmoqlari	9 127,9	11 350,8	110,0

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 13 472,8 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 106,7 % ga yuqoridir.

2020-2021- yillarda aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi va o'sish sur'atlari





Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 97,9 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,1 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 44,9 % ni, sanoat tarmog'i 14,8 % ni, qurilish 6,0 % ni va xizmatlar sohasi 34,3 % ni tashkil qildi.

2020-2021- yillarda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi
(jamiga nisbatan % da)

	2020- yil	2021- yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	97,9	97,9
mahsulotlarga sof soliqlar	2,1	2,1
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	45,5	44,9
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	20,7	20,8
sanoat	14,8	14,8
qurilish	5,9	6,0
xizmatlar	33,8	34,3
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	6,4	6,4
tashish va saqlash, axborot va aloqa	5,9	6,4
boshqa xizmat tarmoqlari	21,5	21,5

2020-2021- yillarda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi
(jamiga nisbatan % da)





● Yalpi qo'shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar


YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 104,6 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi (44,9 %), sanoatda 110,8 % (14,8 %), qurilishda 115,2 % (6,0 %), xizmatlar sohasida 112,5 % ni (34,3 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 109,9 % (6,4 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 124,7 % (6,4 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 110,0 % dan (21,5 %) iborat bo'ldi.

2020-2021- yillarda YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilga nisbatan % da)




YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 2,0 f.p. (2020- yilda 1,2 f.p.), sanoat tarmog'i 1,6 f.p. (2020- yilda 0,7 f.p.), qurilish tarmog'i 0,9 f.p. (2020- yilda 0,6 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi 4,1 f.p. (2020- yilda - salbiy 1,0 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,2 f.p. (2020- yilda 0,3 f.p.)ga ko'paydi

2021- yilda YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)



2021-yilda YAHM deflyatori indeksi 2020-yildagi narxlarga nisbatan 113,9 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'ida 116,8 % va xizmat ko'rsatish sohasi da 112,0 % qayd etildi.

2020-2021- yillarda YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilga nisbatan % da)



2021- yilda kichik biznesning YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

2021- yilda kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 73,4 %ni tashkil qildi (2020- yilda 74,2 %).

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog'liq.

